

Lingvokriminalistikaning o‘tmishi va buguni

Toshev Asadbek Qudrat o‘g‘li

Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi

Respublika sud ekspertiza markazi eksperti

Anotatsiya

Mazkur tezisda lingvokriminalistika (forensik lingvistika) fanining shakllanish tarixi, rivojlanish bosqichlari va bugungi kundagi holati kompleks tarzda yoritilgan. Tadqiqotda tilshunoslik va huquqning kesishgan nuqtasida vujudga kelgan ushbu fan yo‘nalishining sud-tergov amaliyotidagi ahamiyati, lingvistik ekspertizaning metodologik asoslari hamda zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, stilometriya, diskurs va pragmatik tahlil, mualliflikni identifikatsiya qilish, sun‘iy intellekt va kompyuter lingvistikasi vositalarining sud lingvistik ekspertizasidagi o‘rni ko‘rsatib o‘tiladi. Tezisda O‘zbekistonda lingvokriminalistika fanining shakllanishi, sud-ekspertiza tizimidagi amaliyot, ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilayotgan haqorat, obro‘sizlantirish va kiberjinoyatlar bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha lingvistik ekspertizaga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotgani ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari lingvokriminalistikaning bugungi yutuqlari va istiqboldagi rivoj yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar.

Lingvokriminalistika, sud lingvistik ekspertizasi, matn tahlili, diskurs va pragmatik tahlil, stilometriya, mualliflikni aniqlash, haqorat va obro‘sizlantirish, kiberjinoyatchilik, sun‘iy intellekt(AI)

The Past and Present of Linguistic Criminology

Toshev Asadbek Qudrat o‘g‘li

Expert of the Republican Center for Forensic Expertise

named after Kh. Sulaymonova under the Ministry of Justice

Abstract

This thesis provides a comprehensive overview of the formation history, stages of development, and the current state of linguistic criminology (forensic linguistics). The study analyzes the significance of this scientific field, which emerged at the intersection of linguistics and law, in judicial and investigative practice, as well as the methodological foundations and modern approaches of linguistic expertise. In addition, the role of stylometry, discourse and pragmatic analysis, authorship identification, artificial intelligence, and computational linguistics tools in forensic linguistic expertise is highlighted. The thesis also examines the development of linguistic criminology in Uzbekistan, its application within the forensic examination system, and the growing demand for linguistic expertise in cases related to insults, defamation, and cybercrimes committed on social media platforms. The research findings contribute to identifying the current achievements of linguistic criminology and outlining its prospective directions for future development.

Keywords:

Linguistic criminology, forensic linguistic expertise, text analysis, discourse and pragmatic analysis, stylometry, authorship identification, insult and defamation, cybercrime, artificial intelligence (AI).

Kirish.

Lingvokriminalistika (forensik lingvistika) – bu tilshunoslik fanining yuridik amaliyotlar bilan o‘rgangan yangi yo‘nalishi bo‘lib, unda til va nutq tahlili sud-tergov jarayonlarida dalil sifatida qo‘llanilishidir. Ushbu soha tilning jinoyatlarining va huquq kontekstidagi ilmiy tahlilini o‘z ichiga oladi. Matn tili, sud protsesslaridagi nutq, jinoyatga oid yozma va og‘zaki dalillarning tilshunoslik tahlili shu jumlasidandir. Sud lingvistika til, jinoyat va qonun chorrahasidagi ilmiy amaliyotda XX asr o‘rtalaridan rivoj topa boshladi. So‘nggi vaqtlarda axborot sohasidagi siljishlar va ijtimoiy

tarmoqlarning hayotimizga keng kirib kelishi natijasida, lingvokriminalistikaga, jumladan sud lingvistik ekspertizasiga bo‘lgan talab ortib bormoqda

Tarixan lingvistik ekspertizasiga bo‘lgan talab 1950–1960-yillarda paydo bo‘la boshlagan, va bunda sud amaliyotida yozma va og‘zaki nutqini tahlil qilish zarurati tug‘ildi. 1960-yillarga kelib, Buyuk Britaniyada mashhur Evans ishi lingvistik ekspertiza kuchini namoyish etdi – Jan Svartvik 1968-yilda ushbu ish bo‘yicha “The Evans Statements: A Case for Forensic Linguistics” nomli tahlilini e‘lon qilib, “forensic linguistics” atamasini birinchi bor ilmiy muomalaga kiritdi. Svartvik Evansning politsiya iqrornomasini lingvistik tahlil qilgan holda, uning tili Evansning oddiy nutq uslubiga mos kelmasligini, bayonnoma tilidan politsiya nutqidagi uslubini isbotlab berdi. Bu ish tilshunoslik nuqtai nazari bilan begunoh insonni oqlash qobiliyatini ko‘rsatib, lingvokriminalistika fanining mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishiga turki bo‘ldi.

Hozirgi kunga kelib, lingvokriminalistika nafaqat AQSh va Yevropa, balki O‘zbekiston, Rossiya, Belorusiya kabi davlatlar huquqiy tizimida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqot ishida lingvokriminalistika fanining tarixiy shakllanish bosqichlari, zamonaviy yutuqlari hamda xalqaro va O‘zbekistondagi amaliyotdagi muammolarni tahlil qilish, tadqiqot bo‘yicha e‘lon qilingan ilmiy manbalar (metodik qo‘llanmalar, maqolalar va ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar) o‘rganilib, bugungi kundagi lingvokriminalistika yutuqlari va istiqboldagi soha yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Lingvokriminalistik metodlar: Lingvistik ekspertiza jarayonida tekshirish usullari rang-barang bo‘lib, ular lingvistikaning turli yo‘nalishlariga tayanadi. Eng avvalo, diskurs va pragmatik tahlil usullari muhim o‘rin tutadi – matnning kontekstual ma‘nosi, nutq aktining maqsadi, nutqning pragmatik ta‘siri kabilarni tekshiradi. Chunki, odatda e‘tibor qaratilayotgan so‘z lug‘aviy ma‘nosida haqorat yoki kamsitishni bildirmasligi,

ammo matn va vaziyatda bunday ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, neytral ma'no anglatuvchi “*maxluq*” insonga nisbatan turli xil kontekstda turlicha – haqoratli yoki bezarar – bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Shunday qilib, lingvistik tahlil kontekst va nutq vaziyat ekanini tahlil qilib, iboralarning haqiqiy kommunikativ funksiyasini aniqlaydi.

Bundan tashqari, stilometriya va mualliflikni identifikatsiya qilish usullari lingvokriminalistikada keng qo'llaniladi. Matndagi grammatik va jihatdan uslubiy naqshlarni statistik tahlil qilish orqali mualliflikka doir ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Masalan, muallifga xos so'z qo'llash, iboralardan foydalanish, noma'lum mualliflik tekshiruvi indikatorlar asosidagi urinishlar amaliyotga joriy qilingan. Buning namunasi sifatida Malcolm Coulthard va Tim Grant olingan sud ishlarini stilometrik tahlil qilish orqali muallifni aniqlash usullarini ishlab chiqdi. Matematik lingvistika va sun'iy intellekt yutuqlari ham soha metodologiyasiga joriy qilingan. Masalan, katta hajmdagi matnlarni avtomatik solishtirma tahlil qilish uchun JGAAP (Java Graphical Authorship Attribution Program) va LIWC (Linguistic Inquiry and Word Count) kabi tizimlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar matnlarni lug'aviy va grammatik jihatdan solishtirib, muallifni aniqlashga xizmat qiladi.

Lingvistik ekspertizada matn tahlili quyidagicha olib boriladi:

- ✓ Matnning kontekstual sharoitini va vaziyatini aniqlash;
- ✓ Matnda ifodalangan nutq akti turi va maqsadini (masalan, haqorat, kamsitish, chaqiriq va hk);
- ✓ Matnda mavjud subyekt baholovchi (salbiy yoki haqoratli) birliklarni topish ;
- ✓ Ularning grammatik va semantik tuzilishini tahlil qilish (so'zning lug'aviy ma'nosi va konnotativ ma'nosini aniqlash);

- ✓ Yakunda matnning huquqiy tavsifini berish, ya'ni u haqorat yoki tuhmat sifatida ishlab chiqarish.

Bu kabi tizimli metodika lingvistik ekspertlarining obyektivligi va asosliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Darhaqiqat, sud uchun taqdim etilayotgan dalillar lingvistik tahlili qilish, uning adresatini aniqlash mezonlari ham e'tiborga olinishi lozim. Shu bois ekspertlar oldidan qo'yiladigan savollarni to'g'ri baho berish, lingvistik tahlil chegaralarini aniqlash ham ushbu metodikalarda ko'zda tutilgan.

Ma'lumotlar va vizualizatsiya: Ma'lumotlar tahlili bo'limida aniqlangan statistik ma'lumotlar bilan mustahkamlab borildi. Olingan ma'lumotlar asosida ayrim jadval va grafiklar tuziladi.

Lingvokriminalistikaning tarixiy shakllanishi. AQShda lingvokriminalistika: Lingvistik ekspertiza fan sifatidagi birinchi rivoj topgan makon – Amerika Qo'shma Shtatlaridadir. XX asr o'rtalarida AQSh sud amaliyotida tilshunoslarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etgan. 1950-yillarda AQShda Greer ishi til materiallarini tahlil qilishda lingvist mutaxassislarni jalb etish zaruratini ko'rsatgan bo'lsa, 1960-yillarga kelib sohada nazariy ishlab chiqarish ham shakllana boshlagan. Roger W. Shuy – AQShda lingvistik ekspertiza rivojiga katta hissa qo'shgan tilshunos olimdir. U 1980-yillarda Forensic Linguistics Associates nomli mustaqil konsalting markazini tashkil etib, sud-tergov ishlarida lingvistik tahlilini professional xizmatga aylantirdi. Shuy o'z faoliyat mualliflikni tekshirish, so'roq paytidagi til, jinoyatchilarning nutqlarini mantiqiy tahlillarini qilish kabi yo'nalishlarda ishladi va o'z sinovlarini “Language Crites: The Use and Abuse of Language Evidence in the Courtroom” (1993) kitobida umumlashtirdi. Ushbu kitob va Shuyning amaliy faoliyat jarayonida AQShda lingvistik ekspertiza xulosalari sud protsessida dalil sifatida e'tirof etilishi tasdiqlangan. Masalan, Shuy bir necha jinoyat ishlarida tilshunos ekspert sifatida ko'rsatma berib, matndagi til jinoyatga aloqadorlikka yordam bergan. XX asr oxiriga kelib esa, AQSh Federal Tergov

Byurosi (FBI) tomonidan maxsus Language Analysis Unit (Til tahlili bo'limi) tuzildi va maktublar va hujjatlarda tovlamachilik mazmundagi materiallar hamda ekstremistik kontentlarni tahlil qilish yo'lga qo'yildi. Shu tariqa, 1990-yillarga kelib lingvokriminalistika AQShda huquqni nazorat qilishning ajralmas qismiga aylandi.

Buyuk Britaniyada lingvistik ekspertiza: Buyuk Britaniyada lingvokriminalistika rivoji biroz keyinroq, 1980-yillar boshidan bo'lsa-da, bu yerda soha akademik nuqtai nazardan mustahkamlandi. Malcolm Coulthard Britaniyada ushbu yo'nalishni rivojlantirgan olimdir. U Birmingem universitetida, Aston universitetida sud lingistikasi bo'yicha tadqiqotini tashkil qilgan. 1990-yillar Coulthard va shogirdi Tim Grant sud hujjatlari, yozishmalar, bayonotlar va boshqa materiallarda muallifni aniqlashning statistik usullarini ishlab chiqdilar. Ularning sa'y-harakatlari natijasida Buyuk Britaniyada 1990-yillarda lingvistik ekspertiza markazi tashkil topdi. Professor Coulthard, tahlil darajasini, so'roq jarayonidagi savol-javob diskursini lingvistik tahlil qilish, ya'ni so'roq jarayonda jinoyatni qanday aniqlash bo'yicha ham innovatsion ishlar qildi. Buyuk Britaniyada 1993-yilda Janubiy Uels Politsiyasi qoshida ham lingvistik tahlil bo'limi ish boshlab, u ko'plab jinoyat ishlarida xatlar va qo'lyozmalar tilini ekspertiza qilish bilan shug'ullangan. 1990-yillarga kelib Britaniya lingvokriminalistlar xalqaro hamjamiyatni mustahkamlash "Xalqaro sud lingvistlari assotsiatsiyasi (International Association for Forensic & Legal Linguists, IAFL)**ni tashkil etishdi. Bugungi kunda IAFL dunyoning ko'plab mamlakatlarida faol bo'lib, konferensiyalar va jurnallar orqali soha rivojiga hissa qo'shmoqda. AQSh va Britaniyada lingvokriminalistik farqlanadigan ba'zi jihatlar mavjud.

Aspekt	AQSh (Amerika) yondashuvi	Buyuk Britaniya yondashuvi
Ekspert qiymatining roli	Lingvist-ekspert tekshiruvi sudda dalil sifatida qabul qilinishi va jinoyat isbotining bir qismi bo'lishi mumkin.	Lingvist-ekspert sudda maslahatchi sifatida olinadi, undan faqat til ishtirokini chegaralanadi. Ya'ni, Buyuk Britaniyada lingvist ekspertlar tomonidan bevosita “ayb isboti” emas, balki sudyaga tushunmovchiliklarni tilshunoslar nuqtai nazaridan yetkazib beruvchi vosita sifatida qaraladi.
Tashkil topishi va ilmiy maktab	1950–60-yillardan amaliy qo'llanila boshladi; 1980 yillarda R. Shuy tomonidan birinchi mustaqil konsalting tashkil etildi. 1990-yillarda FBI huzurida rasmiy til tahlili bo'limi yo'lga qo'yilgan.	1960-yillardan (Svartvik ishi) qayta ishlash; 1980–90-yillarda M. Coulthard tomonidan Aston universitetida birinchi ilmiy maktab va tadqiqot instituti tashkil etildi. Soha universitetlarda o'rganila boshlandi va 1990 yilda IAFL xalqaro ilmiy hamjamiyat shakllangan. Akademik va amaliy integratsiya kuchli, maxsus o'quv dasturlari mavjud.

AQShdagi jadvaldan ko'rinadiki, AQSh modeli lingvistik ekspertizani sud jarayonida faolroq qo'llashga intiladi Britaniya modelida esa tilshunoslar fikri ko'proq isbotlovchi dalil sifatida qabul qilingan va qonuniy baholashni sudyalarning hay'atining o'zi hal qilgan. Shunga qaramay, har ikki maktabda ham lingvokriminalistika multidisipar xarakterga ega ekani kuzatiladi. Masalan, AQShda ham, Buyuk Britaniyada ham lingvistik ekspertiza psixologiya, huquqshunoslik, kriminologiya kabi sohalar bilan

uzviy bog'langan holda rivojlanmoqda. Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida (jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida, Avstraliya, Kanada va boshqalarda) lingvistik ekspertiza bo'yicha ekspertlar faoliyatini olib boradi va bu boradagi global tajribalar bir-birini boyitmoqda.

XXI asrda lingvistik ekspertizaning yuksalishi. Raqamli texnologiya asrida lingvokriminalistika yangi bosqichga ko'tarildi. Endilikda tilshunos-ekspertlar faqat an'anaviy matn va nutqni emas, balki elektron xabarlar, internet muloqotlari va ijtimoiy tarmoqlardagi postlarni ham tahlil qilishga to'g'ri kelmoqda. Yangi qilingan jinoyatlar – masalan, ijtimoiy tarmoqlar orqali haqoratlash, obro'sizlantirish, ekstremistik chaqiriqlar – matn ko'rinishida sodir etilayotgani sababli lingvist ekspertlarga ehtiyoj ortmoqda. Zamonaviy lingvistika va kompyuter dasturlari katta matnlar omborini qisqa vaqt ichida, shaxsga xos so'z qo'llash uslubi orqali muallifni avtomatik identifikatsiya qilish imkoni yaratmoqda. Masalan, AQShda terrorchilik jinoyatlarini internetda, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'lgan real vaqtda rejimida avtomatik tahlil qilish uchun maxsus dasturiy ta'minotlar joriy etilgan. Zamonaviy dasturlar kontent muallifini tekshirishda stilometrik algoritmlar asosida tekshirishlar olib boradi – bunday zamonaviy texnologiyalarning muallifni aniqlash ko'rsatgichi 85–90% aniqlikka erishgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Sun'iy intellekt yutuqlari: So'nggi yillarda sun'iy intellekt (AI)ni lingvistik ekspertiza sohasida ham qo'llash g'oyalari ilgari surilmoqda, Jumladan, katta hajmli til modellari va mashinali o'rnatish algoritmlari yordamida matnlarning dasturiy ta'minotdan samarali foydalanishi yo'lga qo'yildi. Misol uchun, BERT yoki chatGPT kabi zamonaviy model asosida ishlovchi dasturlar matndagi manipulyativlik indeksi yoki jinoyat alomatlari mavjud axborotni aniqlab samarali ishga tushirilmoqda. Albatta, bunday avtomatlashtirilgan tahlil inson omilini, ekspert o'rnini bosa olmaydi, lekin katta axborotlarni tahlil qilishda, saralashda qo'l keladi. Lingvokriminalistlar endi diqqat-

e'tiborini eng nozik va murakkab hollarga qaratib, vaqt va resursni tezamoqda. Kompyuter lingvistikasi asosidagi boshqa manbalar ham masalan, yuqorida tilga olingan JGAAP, LIWC katta hajmdagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Xalqaro ilmiy markazlar: Globallashuv davrida dunyoning turli burchaklarida lingvistik ekspertizaga ixtisoslashgan markazlar tashkil topmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyadagi Aston University Forensic Linguistics Institute, AQShdagi laboratoriya Shuy asos solingan Forensic Linguistics Institute, Londondagi John Olsson Forensic Linguistics Institute kabilar internet tarmog'ida til orqali amalga oshirilayotgan jinoyatchilikni aniqlashga ixtisoslashtirilgan markazlarga aylangan. Bu markazlar lingvistika, psixologiya, siyosatshunoslik va integratsiyalashgan huquq sohalarini, yangi tadqiqot uslublarini yaratishni nazarda tutadi. AQShning xavfsizlik (Homeland Security), Ichki ishlar vazirligi (CIA) tarkibidagi markaziy tahliliy faoliyat yuritib, terrorizm, kiberjinoyatlar, tovlamachilik va ekstremizmga oid matnni tadqiq qilmoqda. Buyuk Britaniyada esa politsiya va universitetlar hamkorligida bir necha qo'shma dasturlar yo'lga qo'yilgan – masalan, talabalar uchun forensik lingvistika bo'yicha magistratura kurslari taklif qilinib, bitiruvchilarga politsiya ekspertiza bo'limlarida amaliyot o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda lingvokriminalistika bo'yicha birinchi izlanishlar 2000-yillar boshlariga to'g'ri keladi. Bu boradagi tilshunos olimlar til va huquqning o'zaro aloqasini, xususiyl, siyosiy nutq, axborot manbalari tili, ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarni o'rganishga kirishdilar. Bunday izlanish turtki bo'lgan asosiy omil – mustaqillikdan so'ng jamiyatda tuhmat, haqorat, to'g'ridan-to'g'ri nutq orqali sodir etiluvchi huquqbuzarlikka qarshi kurashishning ahamiyati ortganidir. Toshkent davlat sharshunoslik universiteti, Alisher Navoiy nomadago O'zbek tili va adabiyoti universitet va huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarda lingvokriminalistika

masalalarida ishlar olib borildi. 2010-yillarga kelib ayrim sud ishlarida filologini jalb etish amaliyoti paydo bo'ldi. 2018–2019-yillarda O'zbekiston sud-ekspertiza tizimida lingvistik ekspertiza bo'limlari tashkil etildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Respublika Sud ekspertizasi markazi (RSEM) va Ichki ishlar vazirligida ekspertlar lingvistik tahlil bo'yicha faoliyat olib bormoqda.

O'zbekistonda lingvistik ekspertiza asosan shaxs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish (haqorat, obro'sizlantirish, kamsitish), ijtimoiy (adovat qo'zg'atuvchi nutq) hamda kiberjinoyatchilikka qarshi kurash (onlayn va to'g'ridan-to'g'ri) sohalarini o'z ichiga oladi. O'tgan yillarda bu yo'nalishdagi murojaatlar soni sezilarli darajasida oshdi. Ayrim manbaalarda qayd etilishicha, so'nggi paytlarda tergov va sud idoralariga haqorat va obro'sizlantirish bilan bog'liq ekspertiza uchun murojaatlar keskin ko'paygan. Jamiyatda, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan haqoratli materiallar bo'yicha tilshunos ekspertlariga bo'lgan talab ortgan.

Lingvokriminalistika – tilshunoslik va huquqning kesishuvidagi fan – bugungi kunda jadal rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Lingvistik ekspertiza 1960-yillarda Buyuk Britaniyada boshlangan bo'lsa, hozirgi davrda AQShdan tortib O'zbekistongacha ko'plab qonun amaliyotida muhim o'rin egallamoqda. Soha taraqqiyotiga tilshunos olimlarning xizmatlari juda katta. Jan Svartvik, Rojer Shuy, Malkolm Koulthard kabi tadqiqotchilar uning nazariy va amaliy poydevorini yaratdi. Bugungi zamon lingvistik ekspertizalari nafaqat matn muallifini aniqlash yoki uni til nuqtai nazaridan aniqlash, balki siyosiy mujarolarga qarshi kurash, onlayn tahdidlar, haqoratlarni aniqlashda ham muhim ro'l o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.
2. *Ўзбекистон Республикаси Кодекслари тўплами. Тошкент, “Адолат”-2014.*
3. Судебно-политолого-лингвистическая экспертиза. Методическое пособие для экспертов. Ташкент-2015
4. Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т., Тўхлиев Н., Умаров Э. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 2008.
5. Кукушкина О.В., Сафонова Ю.А, Секераж Т.Н. Теоретические и методические основы производства судебной психолого-лингвистической экспертизы текстов по делам, связанным с противодействием экстремизму. Москва, 2011.
6. Русча-ўзбекча словарь. 2 томлик луғат. М.К.Кошчановнинг раҳбарлиги остидаги редак. коллегия. Тошкент 1983 й.
7. Кусов Г.В. Судебная лингвистическая экспертиза «оскорбления»: развитие современной теории и практики // Российский судья, 2011
8. Бринев, К. И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: монография [Текст] / К. И. Бринев. – Барнаул: Изд-во Алтайской государственной педагогической академии, 2009. – 252 с.